

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 126 sahifa.*

*E'lion qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

## **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlanitirish asoslari.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtafida iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана .....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnni bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari .....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiy transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
Jiyanova Nargiza Esanboyeva	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarni samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



# OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARDA INNOVATSION YECHIMLARNING ZARURATI

**Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna**

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati rahbari



**Annotatsiya:** Maqloda O'zbekistonning rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lgan oliy ta'lif tizimi, hamda yuz berayotgan qator o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lif, oliy ta'lif muassasasi, islohot, dastur, taraqqiyot, ta'lif, rivojlanish.

**Abstract:** The article presents the system of higher education, which is one of the developing sectors of Uzbekistan, as well as a number of changes that are taking place, the reforms being implemented and their results.

**Key words:** higher education, higher education institution, reform, program, development, education, development.

**Аннотация:** В статье представлена система высшего образования, которая является одной из развивающихся отраслей Узбекистана, а также ряд происходящих изменений, реализуемые реформы и их результаты.

**Ключевые слова:** высшее образование, вуз, реформа, программа, развитие, образование, развитие.

## KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy, iqtisodiy, fan va ta'lif sohalaridagi islohotlar, birinchi navbatda, demografik jarayonlar va urbanizatsiyani, bashariyat tafakkuri hamda xalqimizning o'sayotgan siyosiy dunyoqarashi, ongi va madaniyati hisobga olingan holda umumxalq manfaati chuqur o'ylangan holda amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida nimalarga erishdik, qanday yutuqlarni qo'liga kiritdik, degan savollar hammani qiziqtiradi. Ayniqsa, mamlakat poydevori hisoblangan ta'lif tizimining rivojlanishi, xususan, oliy ta'lif tizimidagi tub burilishlarning yurt taraqqiyoti, aholi farovonligi va yoshlar kelajagini belgilashdagi o'rni beqiyosdir. Davlat oliygohlari bilan bir qator nufuzli xorijiy oliy ta'lif muassasalari filiallarining ochilishi va yurtimiz uchun butkul yangi tashkiliy formatdagi ta'lif maskanlari – xususiy oliy ta'lif tashkilotlarining bo'y berib o'sishi oliy ta'lif tizimini raqobat maydoniga aylantirdi.

## ADABIYOTLAR TAHLIL

Mamlakatimizda so'nggi bir necha yil ichida zamonaviy ta'lif tizimi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi va hozirgi vaqtida ta'lifning raqobatbardoshligini oshirish, uning sifatini yaxshilashga katta ahamiyat berilmoqda. Bunga esa tizimlashtirilgan sifat boshqaruvisiz erishib bo'lmaydi. Bu esa zamonaviy oliy ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida tan olingan

Bu sohada olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar doirasi ancha kengdir. Jumladan, D.V. Puzankovning fikricha, ta'lif sifati uchta muhim asosga tayanadi: birinchidan, ta'lif maqsadlari va mazmuni, ikkinchidan, kasbiy vakolatlari darajasi va ularning faoliyatini tashkil etish, uchinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik va ilmiy axborot bazasi holati kabilar.

V.M. Sokolov ham shunga o'xshash fikr bildirgan bo'lib, ta'lif jarayonining sifati shaxsning ta'lif va tarbiya darajasini ta'minlaydigan bir qator o'zgaruvchilarga bog'liq, deb hisoblaydi<sup>[4]</sup>. U ta'lif sifati o'zgaruvchilariga ta'lif mazmuni; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari; pedagogik texnologiyalar; kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash; ularning faoliyatini motivatsiyalash; ta'lif muassasalari infratuzilmasini kiritadi.

Gafforova, V.A. Balaban va I.F. Kravchenkolar ham ta'lifni tor ma'noda tayyorgarlik darajasi bilan bog'lab, universitetda mayjud bo'lgan yoki sodir bo'layotgan barcha narsalarning sifati ushbu tayyorgarlikni omillar to'plami sifatida ko'rib chiqishadi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yetti yilda mamlakatda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishning natijalarini tahlil etar ekanmiz, O'zbekiston muhim tarixiy burilish pallasida turganini aniq ko'ramiz. Aynan shu davrda mamlakatimiz iqtisodiyotida, madaniyati va ma'naviyatida, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turmush tarzida, dunyoqarashiyu tafakkurida demokratik o'zgarishlar yuz berdi. Umuman hamma sohada katta yuksalish, rivojlanish va ijobjiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu yetti yillikda demokratik qadriyatlar, fuqarolarning demokratik-huquqiy erkinliklari qaror topib, matbuot va so'z erkinligiga yo'l ochib berildi.

Jamiyatga demokratik huquqiy va matbuot erkinligini berish har qanday davlat rahbaridan katta matonat va jasorat talab etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zida ana shu matonat va jasoratni topa oldi. Bu xizmatlari bilan Prezidentimiz xarizmatik shaxs ekanini isbotladi hamda O'zbekiston tarixida demokratik prezident sifatida alohida joy oldi. Bular hammasi xalqimiz uchun haqiqiy ma'nodagi tuhfa bo'ldi. Buni aytishdan maqsadim – ta'lif erkinlik bilan rivojlanadi. Ta'lif tizimida, jumladan, oliy ta'lifda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergen o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobjiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha ko'zlangan ulkan maqsadlar yo'lida Prezidentimiz ta'limgagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni ichiga kirib bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Bu borada avvalo qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ta'lif tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o'qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lif va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga katta e'tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o'qituvchilar oyligini oshirish va rag'batlantirib borish zarurligini ko'rsatdi, bu masalalarda sezilarli sarmoyalalar ajratilib ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarish tomonidan ilgari surilgan barcha masalalarni ishonch bilan hal qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtlarida barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Har qanday barqaror rivojlanayotgan jamiyatda xato-kamchilik bo'lgani kabi, bizda ham bir qator kamchiliklar mavjud.

Keyingi yetti yilda o'tkazilgan Oliy ta'lif islohotlarida erishilgan eng katta natijalardan biri bu shubhasiz oliy ta'limga qabul jarayonlaridagi korruption holatlarga chek qo'yilishidir. Uzoq yillar davomida ta'lif tizimining qora dog'i bo'lib kelgan bu illat hozirda o'tmishtga aylandi. Oliy ta'lif islohotlarining mahsuli sifatida mamlakatimizda oliy ma'lumot olmoqchi bo'lgan har qanday fuqaro uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Yoshidan qat'i nazar, oliy ma'lumotni kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lif shaklida olishga sharoit yaratildi. Ya'ni mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshi, millati va elatidan qat'i nazar, o'zining Konstitutsion huquqlaridan to'liq foydalinish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, mehnat staji, ish tajribasiga ega bo'lgan fuqarolar o'zları ishlayotgan korxonaning yuqori tashkilotlari tavsiysi bilan imtihonsiz, suhbat asosida oliy o'quv yurtiga kirish imkoniyatini qo'liga kiritdi. Jumladan, kamida 5 yil ish stajiga ega xodimlarini davlat OTMlarning sirtqi va kechki ta'lif shakliga o'qishga kirishi uchun Respublikamizdagı 71 ta tashkilotga tavsiya berish huquqi berildi. Ular tomonidan berilgan yo'llanmaga ko'ra, ishlovchi xodimlar imtihonsiz, suhbat natijalariga ko'ra, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilish qoidasining kiritilishi yillar davomida o'z sohasida tajriba orttirgan, amaliyotda toblangan xodimlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.


Har bir tashkilot 100 tagacha xodimiga shunday yo'llanma berishi mumkinligi ham qayd etildi. Oliy ta'lif islohotining bu qoidasi bozor munosabatlarining mohiyatiga ham moslandi. Oliy ta'lif islohoti, fuqarolarning oliy ta'lif olish huquqi to'g'risida gap borar ekan, o'rta maktab va kollejlar bitiruvchilarini oliy ta'lif bilan qamrab olish masalasi ham yechimini kutayotgan o'tkir muammolardan edi. Maktab va kollej bitiruvchilarini bilan oliy o'quv yurtlarining nisbati keskin farq qilishi bilim olaman degan, ilmga chanqoq yoshlarning ehtiyojini qondira olmasligi oqibatida minglab yoshlarning yaqin va uzoq mamlakatlarga chiqib ketishiga olib keldi. Prezident tashabbusi bilan ko'rigan chora-tadbirlar tufayli 2017–2023-yillarda bu raqam oldingi 9 foizdan 42 foizga yetdi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasi 2030-yilda 50 foizga yetkaziladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lif sohasi izchil islohot, modernizatsiya va takomillashtirish bosqichidan o'tmoqda. Keyingi olti yilda mamlakatimizda yangi oliy ta'lif muassasalari va yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil etildi, davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy oliy o'quv yurtlari ochildi.

Oliy ta'lif islohotlarining muhim qirralaridan yana biri yoshlarimizning bir vaqtda bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish masalasi edi. Mamlakatimizda ancha yillardan buyon faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lif maskanlarining qabul jarayoniga havas bilan qarab kelar edik. Zero, bir vaqtning o'zida mamlakatimizdagı hamma xorijiy oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish mumkin edi. Bu holat bizni ham hayratga solar, ham havasimizni keltirgan. Prezidentimiz aynan ana shu masalada "Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lif olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi", – deb ta'kidlagan edi. Hech qancha vaqt o'tmay yoshlarimiz shunday imkoniyatga ega



bo'ldi. Keyingi yillarda oliy ta'limgiz tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, shuningdek, ko'plab xorijiy oliy o'quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobjiy holat bo'ldi.


Oliy ta'limgiz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'limgiz imkoniyatlardan foydalanish darajasi izchil oshib bormoqda. Ta'limgiz muassasalarini o'rtaida sog'lom raqobat muhiti yaratilgani o'quv yuklamasini optimallashtirish, o'quv jarayoniga zamonaliv raqamli texnologiyalarni joriy etish imkonini berdi. Birgina 2022-yilning o'zida 43 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, Qoraqalpog'istonda 4 ta yangi oliy o'quv yurti ochildi. Universitetlarni boshqarish uchun yetakchi xalqaro mutaxassislar taklif etildi.



1-rasm: OTMlar soni mulkchilik shakli bo'yicha<sup>1</sup>

Yuqorida rasmida 2024-yil yanvar holatiga mamlakatimizda mavjud bo'lgan oliy ta'limgiz muassasalarini keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 210 ta oliy ta'limgiz muassasasining ichida 114 tasi to'liq davlatga tegishli, 29 xorijiy, 67 tasi nodavlat oliy ta'limgiz muassasalaridir.

Hozirgi vaqtida xususiy oliy o'quv yurtlari oliy ta'limgiz tizimida o'z o'rnnini mustahkam egallab, turli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlab muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.



2-rasm: Respublikadagi xususiy OTMlar, birlik

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Oliy ta'limgizning qamrovi kengayishi davlat va nodavlat ta'limgiz muassasalarini o'rtaida ijobjiy ma'nodagi o'zaror raqobatni ta'minlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi. Chunki uning natijasi muhim hisoblanadi, chunki

<sup>1</sup> <https://stat.edu.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



har bir oliv o'quv muassasasi sifatli kadrlar tayyorlash uchun kurashadi. Raqobat va bozor sifatsiz mahsulotlarni yoqtirmaydi. Natijada raqobatbardosh mahsulot yaratish har bir oliv ta'lif muassasasining asosiy maqsadiga aylanadi, natija kutilganidek yuqori bo'ladi. Shularning o'ziyoq ta'limgagi islohotlar chuqur o'ylangan holda olib borilayotganini anglatadi. Tizimdag'i islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri, oliv ta'lif bilan ishlab chiqarish o'rtaisdagi aloqadorlik integratsiyasini vujudga keltirish bo'ldi. Zero, hamkoriksiz yuqori malakali, zamon talabidagi kadrlar tayyorlash mumkin emas.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilgari mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonalarining buzilib ketishi natijasida hamkorlik aloqalari uzilib, ta'lif o'z yo'lida, ishlab chiqarish o'z yo'lida faoliyat yuritar edi. Bugungi kunda jozibador investitsion yaratilgan muhit hisobiga mamlakatimizda yirik va o'rta ishlab chiqarish korxonalari qad ko'tardi, oliv ta'lif bilan ishlab chiqarish o'rtaisdagi hamkorlik integratsiyasi yo'ilga qo'yilmoqda. Texnika oliv o'quv muassasalari talabalari nafaqat yangi texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni boshqarish amaliyotiga ega bo'lishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan bugun ta'lif va fan sohasini ishlab chiqarishga integratsiyalash bo'yicha berilayotgan topshiriqlari yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz:

- ijtimoiy davlat islohotlarining mohiyati va maqsadini tushungan holda ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'lifni integratsiya qilishning amaliy ahamiyatini tatbiq qilish zaruratini anglash;
- ishlab chiqarish korxonalarning ichki va tashqi bozor sharoitiga moslashganlik holati va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini institutsional baholash;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishning ta'lif bilan uyg'unlashgan shakllarini joriy etish, yiriklashtirish, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatsiyalashtirish, korxonalarga innovatsion texnologiyalarni qo'llashni o'rganish;
- korxonaning kapital quyimalari tarkibini uzoq istiqbolga mo'ljalab prognozlash;
- ishlab chiqarishga joriy qilingan fan o'rganuvchilarini iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish;
- korxonada mehnat unumdarligini uzlusiz oshirilishini takomillashtirishda oliv ta'lif muassasalari bilan hamkorlikda ishslash;
- mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va mahsulot sifatini boshqarish xususiyatlari va ularning samaradorligini aniqlash usullarini institutsional o'rganish;
- mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatlari va qo'shimcha qiymat yaratish, korxonada narxlarning shakllanishini prognozlab borish;
- korxonada iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish usullarini takomillashtirish asosida yangi ixtirolarni amaliyotga joriy qilish, kamroq ijtimoiy mehnat sarflagan holda yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni innovatsion o'rganish kabilalar istiqbollidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Губарев В.В. Системное представление качества образования / В.В.Губарев // Стандарты и качество. –2015. – № 4. – С. 40 – 45
2. Нуждин В.Н., Кадамтсева Г.Г., Пантелейев Э.Р., Тихонов А. Стратегия и тактика управления качеством образования: методическое пособие. – Иваново, 2013. – С.114. <https://uchebana5.ru/cont/1774853.html>
3. Селезнева, Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад /
4. Н.А. Селезнева.- Изд. 3-э. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2003. – 95с. <https://search.rsl.ru/ru/record/01002352141>
5. Гаффорова Е. Б., Балабан В. А., Кравченко И. Ф. Проблемы формирования селей вузовской системы качества // Стандарты и качество. 2002. № 4. С. 38–41
6. Байденко, В.И. Образовательный стандарт: Теоретические и концептуальные основы; опыт системного исследования: дис.... д-ра пед. наук, 1999-295с. <https://www.dissertcat.com/content/obrazovatelnyistandart-teoreticheskie-i-kontseptualnye-osnovy-opyt-sistemnogo-issledovaniya>
7. Ибатов М.К., Пак Ю.Н. Концептуальные аспекты управления качеством образования: проблемы и решения., 2018, с.10-16. ДОИ: 10.25586/RNU.XET.18.03.П.10. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnye-aspektuyupravleniya-kachestvom-obrazovaniya-problemy-i-resheniya/viewэр>

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

